

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 334.722.8:336(575.1)

NORQULOV MIRSAID TO‘LQIN O‘G‘LI

**AKSIYADORLIK JAMIYATINI KAPITAL TARKIBINI
SHAKLLANTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi

**Ilmiy rahbar: iqtisod fanlari doktori,
professor X.X.Xudoyqulov**

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITAL TARKIBINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1. Aktsiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibini shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
1.2. Aktsiyadorlik jamiyatlari kapitali tarkibini shakllantirishning tasnifi va manbalari.....	24
1.3. Aktsiyadorlik jamiyatlari kapitali tarkibini shakllantirish tamoyillarining asoslari.....	32
I-bob bo'yicha xulosa.....	43
II-BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITAL TARKIBINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTINI TAHLILI.....	45
2.1. Aktsiyadorlik jamiyatlarining kapitalining hozirgi holati tahlil.....	45
2.2. Aktsiyadorlik jamiyatlarini qarz kapitali holati tahlili.....	67
2.3. Aktsiyadorlik jamiyalarini kapitaliga ta'sir qiluvchi omillarni ekonometrik tahlili.....	78
II-bob bo'yicha xulosa.....	90
III- BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITAL TARKIBINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH...	93
3.1. Aktsiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibini shakllantirishdagi muammolar va ularning echimlari.....	93
3.2. Mamlakatizdagi aktsiyadorlik jamiyatlarining kapitali tarkibini shakllantirishni takomillashtirish.....	103
III-bob bo'yicha xulosa.....	113
Xulosa va takliflar.....	114
Foydalanilgan adabiyotlar.....	116

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibini samarali shakllantirish korporativ moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investorlar uchun risk-daromad muvozanatini optimallashtirish hamda bozor qiymatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Optimal kapital tarkibiy tuzilmasining tanlanishi aksiyadorlik jamiyati moliyaviy resurslarga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytiradi, qarz va o'z kapitali nisbatining maqbul darajada saqlanishi esa soliq dastaklaridan foydalanish orqali moliyaviy samarani kuchaytiradi va qarzдорlik xavflarini cheklaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, MSCI World Index tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlari dunyo bozor kapitalizatsiyasining 85 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Masalan, "AQSh va Yevropa davlatlarida jahonning eng yirik aksiyadorlik jamiyatlari yillik o'rtacha 7-10 foizlik o'sish ko'rsatkichlarini namoyish etmoqda. 2025-yilda jahonning 10 ta eng yirik korporatsiyasining umumiy daromadi 19,7 trln. AQSh dollarini tashkil etgan, bu ko'rsatkich 10 yil avvalgiga nisbatan 72,51 foizga o'sgan"¹. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va kapital strukturasini diversifikatsiya qilish kabi elementlar asosiy tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahonda turli ilmiy markazlar va tadqiqot institutlari aksiyadorlik jamiyatlarining kapital tarkibini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib bormoqda. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarining kapital tarkibini shakllantirishda moliyaviy ko'rsatkichlarning ta'siri, dividend siyosatini optimallashtirish va moliyaviy xavflarni boshqarishga oid tadqiqotlar keng tarqalgan. Xalqaro ilmiy markazlarda aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish, korporativ boshqaruv mexanizmlarini yaxshilash, xalqaro moliyaviy standartlarni

¹ MSCI World Index // <https://www.msci.com/documents/10199/ce75600b-9451-4f93-be4f-573b702a4827>

tatbiq etish, moliyaviy resurslarni boshqarishni avtomatlashtirish, moliya tizimi va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish jabhalarini qamrab olgan. Bundan tashqari, Osiyo va Afrika mamlakatlarida aksiyadorlik jamiyatlarining transformatsiya jarayonlari, kapital bozorlarining rolini kuchaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish masalalari tadqiqot obyektiga aylangan. Ilmiy ishlar tendensiyalari raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va blokcheyn platformalarining aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishga integratsiyasini tadqiq etishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirish milliy iqtisodiyotning strategik segmenti bo'lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish va xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotni oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq, tadqiqotlarda moliyaviy samaradorlikni baholash mezonlari, moliyaviy strategiyaning milliy xususiyatlarini shakllantirish, aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosatini takomillashtirish kabi masalalarda ilmiy bo'shliqlar mavjud. Shuningdek, moliyaviy risklarni boshqarish tizimi va ularning raqamlashtirish jarayonlariga integratsiyasini o'rganish ham dolzarb vazifalardan biridir. O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirish nafaqat milliy iqtisodiyot rivojiga xizmat qiladi, balki mamlakatning xalqaro moliyaviy bozorlardagi raqobatbardoshligini ham oshiradi. Ilmiy tadqiqotlarning bu yo'nalishdagi kengayishi xalqaro tajriba va milliy xususiyatlarni uyg'unlashtirishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat

aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida", 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son "2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 9-dekabrdagi 775-son "Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini hamda kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishning konseptual asoslari, iqtisodiy mazmuni va asosiy prinsiplari bir qator xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, R.Rehan, F.Modilyani, M.Miller, E.Altman, F.Nayt, Dj.K.Van Xorn, Dj.M.Vaxovich, S.Ross, A.Damodaran, N.Z.Mabandlarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin². Ular tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va ishlab

² Rehan R. et al. Capital structure determinants across sectors: Evidence from Malaysian listed firms // Heliyon. – 2023.; Modigliani, F.; Miller, M. H. - "The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment." American Economic Review, 1958; Altman, E. I. - "Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy." Journal of Finance, 1968; Corporate Financial Distress and Bankruptcy, 1983., Knight, F. H. - Risk, Uncertainty and Profit, 1921., Van Horne, J. C. - Financial Management and Policy, 1967. Wachowicz, J. M. - (with Van Horne) Fundamentals of Financial Management, 13-edition. Ross, S. A. - "The Arbitrage Theory of Capital Asset Pricing." Journal of Economic Theory, 1976; (with Brealey & Myers) Corporate Finance, Brigham, E. F. - Financial Management: Theory and Practice; (with Houston) Fundamentals of Financial Management., Damodaran, A. - Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset, 1996 (3rd ed. 2012); Corporate Finance: Theory and Practice, 4th ed. 2022.; Mabandla N.Z. et al. Determinants of capital structure: Does growth opportunity matter? // Journal of Risk and Financial Management. – 2025.

chiqilgan modellar moliyaviy menejmentning mustaqil ilmiy yo‘nalish va fundamental fan sifatida shakllanishiga xizmat qilgan.

Olimlar tomonidan aksiyadorlik jamiyat kapital tarkibini shakllantirishning fundamental-ilmiy asoslari, funksiyalari va tashkil etish mexanizmi, moliyaviy qarorlar qabul qilishda foydalaniladigan ekonometrik instrumentlarning ilmiy ahamiyati tushuntirib berilgan.

MDH davlatlarining olimlari Yu.Brigxem, A.P.Ivanov, R.M.Sayfutdinov, E.A.Mamedov, I.A.Blank, I.Ya.Lukasevich, I.V.Sergeev, G.B.Polyak, S.V.Galiskaya, S.E.Kovan, V.V.Kovalev, V.V.Bikovskiy, N.V.Martinoва, T.V.Teplova, O.V.Kovalenko va boshqalarning ilmiy ishlarida aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishning iqtisodiy-nazariy mazmuni, rivojlanish bosqichlari, moliya tizimini tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari o‘z ifodasini topgan³. Olimlar tomonidan MDH davlatlarida moliya bozorining rivojlanganlik darajasi, aksiyadorlik kompaniyalarining xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moliyaviy menejmentning nazariy asoslari, milliy aksiyadorlik kompaniyalarida kapital tarkibini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini rivojlantirishda davlatning ishtiroki kabi masalalar ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishning iqtisodiy mohiyati va aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy faoliyating ayrim elementlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari S.E.Elmirzayev, R.X.Karlibayeva, X.X.Xudoyqulov, K.K.Kaxxarov, A.A.Abdugodirov, M.Sh.Abduboyev, N.A.Sherkuziyeva,

³ Бригхэм Ю., Эрхардт М. Финансовый менеджмент. Теория и практика. – СПб.: Питер, 2019.; Иванов А.П. Структура капитала и финансовая устойчивость акционерных обществ в РФ // Финансы и кредит. – 2020. – №6. 20.; Сайфутдинов Р.Н. Оптимизация структуры капитала корпораций в условиях нестабильной экономики: дисс. ... канд. экон. наук. – Казань, 2018.; Мамедов Э.А. Управление структурой капитала промышленных предприятий Азербайджана // Экономические науки. – 2019. 23.; Бланк И. А. Основы инвестиционного менеджмента (Киев: Ника-Центр, 2001; 5-е изд. - 2011)., Лукасевич И. Я. - Финансовый анализ для руководителей и специалистов (М.: Альпина Паблишер, 2003; переизд.), Сергеев И. В. - Управление проектами (М.: Инфра-М, 2020, 10-е изд.), Поляк Г. Б. - Финансовый менеджмент: теория и практика (М.: Юрайт, 2023, 12-е изд.), Галиская С. В. - Финансовый риск-менеджмент (СПб.: Питер, 2019)., Кован С. Э. - “Оценка стоимости компаний в условиях нестабильного рынка,” Корпоративные финансы, № 4, 2021., Ковалев В. В. - Финансовый анализ: управление капиталом, выбор инвестиций, анализ отчетности (М.: Проспект, 2019, 10-е изд.), Биковский В. В. - Финансы предприятий (М.: КНОРУС, 2018, 4-е изд.), Мартинова Н. В. - “Методика комплексной оценки инвестиционной привлекательности предприятия,” Финансовый менеджмент, № 2, 2020., Теплова Т. В. - Корпоративные финансы: оценка и управление (М.: Юрайт, 2022, 3-е изд.); Коваленко О.В. Влияние структуры капитала на стоимость компании (на примере Украины) // Вестник экономической науки. – 2020.

O.N.Xamdamov, B.A.Usmonov va M.E.Egamovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rganilgan⁴.

S.E.Elmirzayev tadqiqotlarida korporativ moliyada strategik yondashuvlar, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash usullari va investitsiya faoliyati samaradorligini tahlil qilishga, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, xavf-xatarlarni pasaytirish va korporativ shaffoflikni ta‘minlash zarurligini ta‘kidlaydi. M.B.Xamidullin tadqiqotlari korporativ boshqaruv tizimini moliyaviy jihatdan takomillashtirish, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, investitsiya siyosatini rivojlantirish va korporativ tuzilmalarda moliyaviy mexanizmlarning samaradorligini oshirish masalalari yechimlariga qaratilgan. R.Karlibayeva tadqiqoti O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari uchun moliyaviy strategiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, investitsiyalarni boshqarish va korporativ boshqaruvni yaxshilash uchun kuchliroq moliya tizimlarini ishlab chiqish zarurligini ta‘kidlaydi. Tadqiqotda mahalliy misollar keltirilgan va moliyaviy hisobotda shaffoflikni oshirish hamda aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini

⁴ Элмирзаев С.Э. Корпоратив молияни бошқаришда солиқ муносабатларини такомиллаштириш. И.ф.д (DSc) диссертация автореферати. –Т.: БМА, 2017. 64 б.; Карлибаева Р.Х. Финансы акционерных обществ в условиях рынка. Авторев. дис. на соискание уч. степ.к.э.н. –Т.: БМА, 2007. 23с.; Xudoyqulov X.X. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish: DSc – Toshkent, 2021. - 17 b.; Кахаров К.К. Развитие рынка ценных бумаг Узбекистана: дисс. канд. экон. наук. – М., 2010. – 132 с.; Abduqodirov A.A. Korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda kapital tarkibini optimallashtirish: iqt. fan. nomz. dis. – Toshkent: TDIU, 2016. – 150 b.; Курбанов Ж.Ж. Давлат ва корпоратив тuzilmalar ўртасидаги ўзаро молиявий муносабатларни самарали ташкил этиш истиқболлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати –Т.: БМА, 2019. 50 б.; Abdubodiqiyev M.Sh. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta‘minotini boshqarish va samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati –Т.:2025. Sherkuziyeva N.A. Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini optimallashtirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish: diss. avtoreferati. PhD – Toshkent, 2021. – 18 b.; Xamdamov O.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimi metodologik asoslarini takomillashtirish diss. avtoreferati. DSc – Toshkent, 2023. – 32 b.; Usmonov B.A. Kapital aktivlarni baholash metodologiyasini takomillashtirish. Diss. avtoreferati. DSc – Toshkent, 2025. – 32 b.; Egamova M.E. “Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda daromadning roli”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati, Toshkent: TMI, 2019.-56 b.

muvofiglashtirishning ilmiy asoslari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiyadorlik jamiyatining kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirishga doir ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibini shakllantirishning nazariy asoslari tadqiq etish;

Aksiyadorlik jamiyatlari kapitali tarkibini shakllantirishning tasnifi va manbalari yoritib berish;

Aksiyadorlik jamiyatlarining kapitalining hozirgi holati tahlili tadqiq qilish;

Aksiyadorlik jamiyatlarini qarz kapitali holati tahlili ochib berish;

Aksiyadorlik jamiyatlarini kapitaliga ta’sir qiluvchi omillarni ekonometrik tahlil asosida aniq ilmiy natijaga erishish;

Aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibini shakllantirishdagi muammolar va ularning yechimlari yoritib berish;

Aksiyadorlik jamiyatining kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirishga doir ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida milliy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari, xususan, “O‘zbekko‘mir” va “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada iqtisodiy-statistik, iqtisodiy-matematik modellashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, istiqbolli prognozlashtirish, korrelyatsion-regression tahlil, statistik ma’lumotlarni guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarining qarz kapitali va o'z kapitali o'rtasidagi maqbul nisbatni 30/70 darajasida belgilash orqali kapital tarkibini muvozanatlashtirish hamda moliyaviy samaradorlikni oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining qarz kapitali tarkibini shakllantirishda bank kredit resurslarini jalb qilishga ko'ra qarz kapitali riskini aniqlashda qarzning kapitalga nisbati koeffisient qiymatini «past risk» (0-0,3), «o'rta risk» (0,31-0,7), «yuqori risk» (0,71) darajalariga ajratish orqali moliyaviy barqarorligini ta'minlash va moliyaviy dastaklardan oqilona foydalanish taklifi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalar paketini mahalliy va xalqaro kapital bozoriga ommaviy savdolarga chiqarishda anderrayter, investitsiya vositachilari va maxsus konsultantlarni jalb qilish orqali aksiyalar bozor qiymatining yuqori va quyi chegarasini aniqlash taklifi ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlari qiymatining o'sishini o'zgarmas samaralar regression ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarida kapital tarkibini shakllantirishni samarali tashkil etish yo'llari nazariy jihatdan asoslandi hamda uning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy muhitni shakllantirishda davlatning roli hamda uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar tizimi ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish asosida kapital tarkibini shakllantirish bilan bog'liq risklar aniqlanib, ularni kamaytirish bo'yicha kompleks choralar belgilangan;

xorijiy mamlakatlardagi aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishda qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar o'rganilib, ularni milliy amaliyotga moslashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirishga oid ilg'or xorijiy tajribalarni nazariy va amaliy jihatdan

o'rganish, kapital tarkibini shakllantirishda mikroiqtisodiy darajada vujudga keladigan risklarni aniqlash va ularni guruhlashtirish, shuningdek, ushbu xatarlarning oldini olish va jamiyatlarning raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan ko'rsatkichlarning amaliy tavsiyalar shaklida taklif etilishi bilan asoslanadi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan chop etilgan rasmiy ma'lumotlardan foydalanildi, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida mavjud bo'lgan moliyaviy samaradorlik zaxiralari aniqlandi va ularning istiqboldagi rivojlanish ko'rsatkichlari ekonometrik modellar asosida ishlab chiqilgan. Shuningdek, olingan ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar amaliyotda sinovdan o'tkazildi hamda yirik sanoat va xizmat ko'rsatish sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan ma'qullanganligi bilan tadqiqot natijalari ishonchliligining yana bir isboti sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy xulosa va takliflardan O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari kapital tarkibini shakllantirish asoslarini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni respublika aksiyadorlik jamiyatlarining kapital tarkibini shakllantirishni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalarni bajarishga doir moliyaviy islohotlar dasturlarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiyadorlik jamiyatini kapital tarkibini shakllantirish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

aksiyadorlik jamiyatlarining qarz kapitali va o'z kapitali o'rtasidagi maqbul nisbatni 30/70 darajasida belgilash orqali kapital tarkibini muvozanatlashtirish hamda moliyaviy samaradorlikni oshirish taklifi "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik

jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 24-iyundagi 01-435-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy resurlarni jalb qilishi va kapital samaradorlikni oshirishga hamda rentabellik ko‘rsatkichlari hisoblangan aktivlar va kapital samaradorlik koeffitsientlarini me’yoriy darajada saqlab qolish imkonini bergan;

aksiyadorlik jamiyatlarining qarz kapitali tarkibini shakllantirishda bank kredit resurslarini jalb qilishga ko‘ra qarz kapitali riskini aniqlashda qarzni kapitalga nisbati koeffitsiyent qiymatini “past risk” (0 – 0,3), “o‘rta risk” (0,31-0,7), “yuqori risk” (0,71) darajalariga ajratish orqali moliyaviy barqarorligini ta’minlash va moliyaviy dastaklardan oqilona foydalanish taklifi “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 24-iyundagi 01-435-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarini kapitali tarkibida bank kreditlar orqali jalb qilingan resurslarni faqatgina yuqori foyda keltiruvchi loyihalar mablag‘larini yo‘naltirish orqali foiz xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy richagdan oqilona foydalanish orqali aksiyadorlar daromadining ortishiga olib kelgan;

aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalar paketini mahalliy va xalqaro kapital bozoriga ommaviy savdolarga chiqarishda andarrayter, investitsiya vositachilari va maxsus konsultantlarni jalb qilish orqali aksiyalar bozor qiymatining yuqori va quyi chegarasini aniqlash taklifi “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 24-iyundagi 01-435-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida fond bozorida obligatsiyalar bilan bog‘liq savdo hajmining ortishiga va aksiyadorlik jamiyatlarini fond bozoriga qarz instrumenti orqali faolligini oshirishga xizmat qiladi;

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog‘ozlari qiymatining o‘sishini o‘zgaras samaralar regression ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha taklif

“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 24-iyundagi 01-435-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida aksiyadorlik jamiyatining kapital rentabelligi va aktivlar rentabilligini hamda jamiyatning sof foydasi o‘rish dinamikasini baholash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 8 ta ilmiy ishlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo’yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 1 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishining tarkibiy tuzilishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 betni tashkil etadi.